



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Maxmudov Mansurjon Abdug'opporovich</i> TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O'RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR	12-17
<i>Qurbanov Xurshid Raupovich</i> O'ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN "MEHNAT ARMIYACHILARI" VA ULARNING TA'MINOTI	18-22
<i>Salayev Fazliddin Shamsiddin o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI	23-28
<i>Abbasov Behzod Baxtiyorovich</i> FARG'ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO'JALIKLARDA IJTIMOIY MUAMMOLAR VA KO'CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI (1946-1965).....	29-35
<i>Mirzaliyev Ulug'bek, Klichev Ulug'bek</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR	36-39
<i>Tursunova Gavhar Begmuradovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN MA'MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI)	40-50
<i>Vaxobov Doston Abdumannob o'g'li</i> IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG'LIQNI SAQLASH XODIMLARINING G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI	51-54
<i>Sodiqova Yulduzzon Maxamat qizi</i> O'ZBEKISTONDA MAKTAB TA'LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR (1991-2024 yy)	55-59
<i>Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich</i> QUYI SIRDARYOBO'YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXELOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI	60-64
<i>Yo'ldosheva Gulbahor Nuriddinovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI (QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA)	65-69
<i>Mardiyeva Guzel Karimovna</i> XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI	70-75
<i>Narziyev Rustambek Xaydarovich</i> HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN YARATILGAN IMKONIYATLAR	76-80

<i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i>	
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING	
IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI	81-87
<i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i>	
O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA	
IPAKCHILIKNING O'RNI	88-92
<i>G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i>	
O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI	93-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i>	
BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI	
RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	100-116
<i>Юлдашева Надира Викторовна</i>	
«ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ:	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА».....	117-123
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i>	
ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	124-128
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i>	
TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI	
FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH	129-135
<i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i>	
SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI	
VA IQTISODIY RIVOJLANISHI.....	136-145
<i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i>	
XORIJY BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA	
KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI T AHLILI	
(ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA)	146-159
<i>Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna</i>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA	
INSON KAPITALINING TA'SIRI	160-164
<i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i>	
“QUTIDA RO'YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH	165-169

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Komilov Ro'zi Rabiyevich</i>	
OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY	
OMILLARNING FALSAFIY T AHLILI	170-172
<i>Хакимов Эркин</i>	
ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ	
МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ	173-180
<i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i>	
SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	181-185
<i>Karimov Yo'lqosh Ergashevich</i>	
TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI	186-191

<i>Агзамходжаева Шахноза Сайдматмабовна</i>	
О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ).....	192-195
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i>	
ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	197-204
<i>Evatov Salimjon</i>	
MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFİY TAFAKKUR RIVOJI: IX-XII ASRLAR MEROSI	205-209
<i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i>	
ISLOM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI	210-213
<i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i>	
IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI	214-217
<i>Kunisheva Nadira Julianovna</i>	
"IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI	218-223
<i>Eshpulatov Inoyat</i>	
FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT VA MA'NAVIY MUHIT	224-231
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i>	
O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY SHAKLLANISHI	232-236
<i>Алиева Эльвина Аметовна</i>	
ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ	237-243
<i>Usmanova Sevara</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA	244-251
<i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i>	
MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI.....	252-260
<i>Daminova Rahima Malikovna</i>	
ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI.....	261-266
<i>Yusupov Asror</i>	
PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV	267-271
<i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i>	
VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR TADQIQOTLARI	272-276
<i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i>	
COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION	277-281
<i>Sirojiddinova Shakhrribonu</i>	
THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS	282-285

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i>	
DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	286-292
<i>Wang Cong</i>	
RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION	293-300
<i>Ли Адик</i>	
К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	301-310
<i>Abdurashidova Zarina Turg'un qizi</i>	
FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	311-315
<i>Axmatov Olimjon Odilovich</i>	
"KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI OLISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI"	316-322
<i>Xatamov To'lqin Tojiddinovich</i>	
KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI	323-329
<i>Kuchimova Shaxlo</i>	
VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI	330-337
<i>O'ranova Dilshoda Adhamovna</i>	
OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDA AYOLLAR JABRLANISHINI OLDINI OLISH BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI	338-347
<i>Geng Zhimin</i>	
RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT.....	348-351
<i>Xidirov Mexroj Qilich o'g'li</i>	
ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON BERUVCHI OMILLAR	352-357
<i>Тулаганов Элмурод</i>	
ВОПРОСЫ ПРОТИВODEЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	358-367
<i>Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon</i>	
DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI	368-374
<i>Abbosov Mirluton Mirsharof o'g'li</i>	
JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY XAVFLILIGI	375-382

<i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i>	
DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR	383-392
<i>Kamilov Oybek</i>	
O'ZBEKISTONNING MIGRATSIIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR VA XORIJY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	393-402
<i>Aбророва Камола Сайдмухторовна</i>	
ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ	403-410
<i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i>	
RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	411-418
<i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i>	
"HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'iy INTELLEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALAR"	419-427
<i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i>	
INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR	428-432
<i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i>	
VALYUTA QIMMATLIKARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOBGARLIK ASOSLARI	433-441
<i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i>	
KONTRAFAKT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI	442-448
<i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i>	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI	449-457
<i>Mansurov Arslon Askarovich</i>	
"IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI	458-463
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
"JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI	464-470
<i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i>	
EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR	471-475
<i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR	476-481

<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i>	
ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI.....	482-485
<i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i>	
FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYATI	486-491
<i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i>	
TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEXANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM MENEJMENTINING O'RNI	492-496
<i>Раббимова Нодира Таштемировна</i>	
ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ	497-501

Received: 16 March 2025**Accepted:** 5 April 2025**Published:** 15 April 2025*Article / Original Paper***INTRODUCTION OF THE PRACTICE OF “SHELF-REGISTRATION”****Tursunkhodjaeva Sirin Zafar kizi**

Associate Professor of the Department of “Finance and Financial Technologies”, PhD

Abstract. In order to increase the attractiveness of the financial market, expand the scope and activity of investors, it is necessary to simplify the process of trading securities. To this end, the implementation of the “shelf-registration” practice is an effective way to simplify the registration processes of trading financial instruments in the financial market, reduce issuance costs, reduce underwriting fees, and provide access to the market at a convenient time. This article examines the essence of the “shelf-registration” practice, analyzes scientific research conducted in this regard, and examines the advantages and disadvantages of the practice.

Keywords: Shelf-registration, financial market, financial risk, underwriting, Securities and Exchange Commission (SEC).

“QUTIDA RO‘YXATGA OLİSH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORİY ETISH**Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi**

“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya. Moliya bozori jozibadorligini oshirish, investorlar qamrovini kengaytirish va faolligini oshirish maqsadida qimmatli qog’ozlar savdo jarayonini yengillashtirish zarur hisoblanadi. Buning uchun, moliya bozorida moliyaviy instrumentlar savdosining rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirish, emissiya xarajatlarini kamaytirish, anderryting to’lovlarini qisqartirish hamda bozorga qulay vaqtida savdoga kirish imkonini taqdim etish maqsadida “Qutida ro‘yxatga olish” (shelf-registration) amaliyotini joriy etish samarali usul hisoblanadi. Ushbu maqolada “Qutida ro‘yxatga olish” (shelf-registration) amaliyoti mohiyati, bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili hamda amaliyotning yutuq va kamchiliklari tadqiq qilingan.

Kalit so’zlar: “Qutida ro‘yxatga olish” (shelf-registration), moliya bozori, moliyaviy risk, anderryting, Qimmatli qog’ozlar va birja komissiyasi (SEC).

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N24>

Kirish. Jahonda aksariyat mamlakatlar fond bozoridan iqtisodiyotni moliyalashtirishning asosiy bo‘g‘ini sifatida foydalanadilar. Fond bozorining rivojlangan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotiga nisbati mamlakatimizga qaraganda yuqori. Shuningdek, mamlakatimiz fond bozoridagi faoliyik nafaqat moliya sektorida faoliyat yurituvchi tashkilotlar, balki aholi orasida ham kuzatilmoqda. Ushbu holat mamlakatimizda fond bozori ommabopligi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Keyingi yillarda mamlakatimizning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi jadal rivojlanib bormoqda. Integratsiya natijasida mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanmagan tarmoqlarida islohotlarni amalga oshirish uchun xorij tajribasini o‘rganish va amaliyotga joriy etish imkoniyati kuchayadi. O‘zbekistonda investorlar faolligini oshirish uchun moliyaviy rag’batlantirishlarning mavjud emasligi, shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan optimal dividend siyosati yuritilmasligi, bozorda qimmatli qog’ozlar savdosini

soddalashtiruvchi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqilmaganligi, xorijiy brokerlarning litsenziyasiz anderrayterlik faoliyatini yuritishi uchun mexanizmlar yaratilmaganligi, erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlarning ulushi pastligi, moliyaviy instrumentlar bilan savdo qilish jarayonlarining murakkabligi, hujjatlashtirish va rasmiylashtirish bilan bog'liq muammolar, investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarish bilan bog'liq kabi muammolar investorlarga investitsiya portfelidan samarali boshqarishga to'sqinlik qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli farmonining 27-maqсадида iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish lozimligi belgilangan. Bundan tashqari, fond bozori ommabopligi va investorlar faolligini oshirish, investorlar uchun moliyaviy qulayliklar yaratish maqsadida aksiyadorlik jamiyatining tashkiliy-amaliy jihatlari va muammolarini chuqur o'rganish, bu boradagi ilg'or xorijiy tajribalardan foydalangan holda mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish zarur. [1]

Savdo jarayonlarini soddalashtirish va hujjatlashtirish jarayonlarini yengillashtirish — investorlarni moliya bozorga jalb qilishning eng maqbul usullari sanaladi. Qimmatli qog'ozlarning har bir diskret ro'yxatdan o'tgan taklifi alohida ro'yxatga olish bayonotining predmeti bo'lishi, hujjatlarini tayyorlash bilan bog'liq kechikishlarga olib keladi, bu esa emitentlarning qulay moliyalashtirish uchun bozorga tezda kirish imkonini bermaydi. Shu bois, qimmatli qog'ozlar chiqarishni ro'yxatdan o'tkazish tartibini soddalashtirish orqali qimmatli qog'ozlar bozorida savdo hajmini oshirishga hamda kapital bozoriga minoritar investorlarni yanada keng jalb qilishga erishish maqsadida qimmatli qog'ozlarni ro'yxatdan o'tkazishda "qutida ro'yxatga olish" (shelf-registration) amaliyotini joriy etish o'rini bo'ladi. Bunda, emitentlar katta miqdordagi aksiya paketlarini oldindan ro'yxatdan o'tkazishadi, moliyalashtirish imkoniyatlari paydo bo'lganda, kompaniyalar qimmatli qog'ozlarni zudlik bilan sotish uchun "javondan" olib qo'yishlari mumkin bo'ladi. Ya'ni, "qutida ro'yxatga olish" aksiyadorlik jamiyatlariga birinchi navbatda, keljakda sotuvga qo'yishni rejalashtirgan o'z kapitalini taqdim etib, so'ng odatda ikki yil mobaynida boshqa me'yoriy talablarsiz uni chiqarishga imkon beradi. Chu, Yongqiang and Zhao fikriga ko'ra, ushbu amaliyot korxonalarga davlat kapitalini chiqarishni tezlashtirishga hamda uzoq vaqt talab etuvchi emissiya va anderrayting jarayonini o'z ichiga olgan an'anaviy aksiyalarni taklif qilish amaliyotini chetlab o'tish imkonini beradi.[2]

Muhokama. Qimmatli qog'ozlar va birja komissiyasi (SEC) 1982-yil mart oyidan 1983-yil noyabr oyiga qadar o'tkazilgan tajriba davrdan so'ng yangi "qutida ro'yxatga olish" (shelf-registration) amaliyotini joriy etish taklifini qabul qildi. [3] SEC 415-sonli qoidasiga ko'ra, korxona ushbu amaliyotga ko'ra kelgusi 2 yil davomida istalgan vaqtida qimmatli qog'ozlarni SECga qo'shimcha ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida ariza bermasdan sotishi mumkin bo'ldi.

"Qutida ro'yxatga olish" (shelf-registration) — qimmatli qog'ozlarni qimmatli qog'ozlar bozorida oldindan ro'yxatdan o'tkazish va ularni 2 yil ichida kerak bo'lgan vaqtida chiqarish jarayoni.



1-rasm. “Qutida ro'yxatga olish” (shelf-registration) jarayoni [9]

Ushbu rasmdan ko'rish mumkinki, aksiyadorlik jamiyati o'z qimmatli qog'ozlarini emissiya qilishdan avval moliya bozoriga kelgusi 2 yil davomida emissiya qilishi rejalshtirilayotgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha "Qutida ro'yxatga olish" (shelf-registration) jarayonini tashkil qilish moliya bozori tomonidan taqdim etilgan ro'yxatga olish shaklini to'ldiradi. So'ng, moliya bozori ushbu shaklda ro'yxatga olishga izn beradi. Korxona tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan barcha qimmatli qog'ozlar korxona emissiya amalga oshirib, erkin muomala (savdo) ga kiritguniga qadar qutida (javonda) saqlanib turiladi. Korxona ro'yxatga olingen ushbu qimmatli qog'ozlarni o'ziga qulay vaqt va makonda, ya'ni foiz stavkasi past bo'lgan sharoitda qarz munosabatini bildiruvchi qimmatli qog'ozlar (misol uchun, obligatsiya)ni, bozorda narx baland bo'lgan sharoitda ulush munosabatini bildiruvchi qimmatli qog'ozlar (misol uchun, aksiya)ni savdoga chiqarishi (qutidan olishi) mumkin bo'ladi. Bu bilan korxona vaqt kutilishlari hamda ortiqcha xarajatlarni oldini olishga va daromadini oshirishga erishadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. 1985-yilda Tompson va Marr "qutida ro'yxatga olish" va qutidan tashqarida ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq emissiya xarajatlarini empirik tahlil qilganda, "qutida ro'yxatga olish" xarajatlari ancha past ekanligini aniqladi. [4] Ushbu amaliyotni kamxarjligining asosiy sababi anderrayter spredlarining sezilarli darajada pastligi bilan bog'liqligini topishgan. 1990-yilda iqtisodchi olimlar Marl, Spivey va Blekvel "qutida ro'yxatga olish" da qo'shimcha sug'urta mukofoti talab etilgan bo'lsa-da, ular tomonidan o'rganilgan deyarli 90% korxonalarda anderrayting to'lovleri kamroq bo'lishi hisobiga kamroq xarajat qilinishi aniqlangan. [5] Moehrle fikriga ko'ra, "qutida ro'yxatga olish"ning moslashuvchanligi korxonalarga moliyalashtirish ehtiyojlariga tezda javob berishga, qimmatli qog'ozlarni qulay bozor narxlari (ya'ni stavkalar past bo'lganda obligatsiyalarini yoki narxlar yuqori bo'lganda aksiyalarini) emissiya qilishga hamda daromadlarni maksimal darajada oshirishga imkon beradi. [6]

Bir qator olimlar, misol uchun 2010-yilda Ritter va Gao [7], 2017 yilda Gustafson[8], "qutida ro'yxatga olish" ko'pincha o'z kapitalini oshirishning eng arzon usuli ekanligini aniqlashdi.

Jahon iqtisodiy inqirozidan so'ng, kichik korxonalarga "qutida ro'yxatga olish" amaliyotini qo'llash mumkin bo'ldi. Undan avval, SEC 1992-yil qabul qilgan qoidaga ko'ra ushbu amaliyot bozor kapitallashuvi 75 ming AQSh dollardan yuqori bo'lgan katta korxonalarga ruxsat berilgan edi. Ushbu tajribani amaliyotga ta'sirini bir qator olimlar o'rgandilar, xususan, 2017-yilda Iliev va Gustafson quyidagi natijalariga erishdi, ya'ni kichik firmalar "qutida

ro'yxatga olish" yordamida davlat aksiyalarini chiqarishni sezilarli darajada oshgani, emissiya qiymati sezilarli darajada pasaygani, investitsiyalar hajmini oshgan holda leverej kamaygani hamda ko'plab kichik korxonalar duch keladigan majburiy moliyaviy cheklovlarini yumshaganini aniqladi.

Natijalar. Tadqiqot davomida ko'p yillik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari bilan tanishish va ularning natijalarini o'rganish natijasida taklif etilayotgan yangi ro'yxatga olish "qutida ro'yxatga olish" (shelf-registration) jarayonini hozirda qo'llanib kelayotgan jarayondan quyidagi jihatlari bilan farq qilishi aniqlandi: (1-jadvalga qarang)

1-jadval

Ro'yxatga olish jarayoni tahlili [9]

Tavsifi	Amaldagi jarayon	Taklif etilayotgan jarayon
Moslashuvchan	Past	Yuqori
Tezlik	Past	Yuqori
Xarajat	Yuqori	Past
Daromad	Past	Yuqori
Emissiya qiymati	Yuqori	Past
Emissiya qilish	Past	Yuqori
Cheklovlar	Yuqori	Past
Moliyaviy leverej	Yuqori	Past

Ushbu jadval ma'lumotlariga ko'ra shuni ta'kidlash mumkinki, "qutida ro'yxatga olish" jarayoni emitentga 2 yil ichida emissiya qilishi rejalshtirilayotgan moliyaviy instrumentlarning katta qismini bir yo'la ro'yhatga olish va qulay bozori sharoitida savdoga chiqarish imkonini yaratganligi sababli, bozorga moslashuvchanligi yuqoriligi aniqlangan, bundan tashqari javonda saqlanayotgan moliyaviy instrumentlarni tezda muomalaga jalb qilish mumkin bo'ladi (Moehrle, 2004; Iliev va Gustafson, 2007), anderrayting to'lovlari, rasmiylashtirish va hujjatlashtirish xarajatlari past (Marl, Spivey va Blekvel, 1990), qimmatli qog'ozlarni qulay bozor narxlarida emissiya qilishga hamda daromadlarni maksimal darajada oshirishga imkon beradi (Moehrle, 2004), qimmatli qog'ozlar emissiya qilish xarajatlari pasaygani bois emissiya qiymati sezilarli darajada pasaygan, kichik korxonalarga ham ushbu jarayonda ishtirok etish imkon yaratilgani bois aksiyalarning chiqarish hajmi oshgan va bu arzon kapital jalb qilishi usuli sifatida korxona o'z mablag'lari manbai ko'paytirgani tadqiq qilingan (Iliev va Gustafson, 2007).

Xulosa. Shunday qilib, ushbu amaliyotni joriy qilish orqali anderrayting sohasida raqobatni oshiradi, emissiya xarajatlarini kamaytiradi, hujjatlashtirish jarayonlarini yengillashtiradi, korxonalarga davlat kapitalini chiqarishni tezlashtirishga hamda uzoq vaqt talab etuvchi emissiya va anderrayting jarayonini o'z ichiga olgan an'anaviy aksiyalarni taklif qilish amaliyotini chetlab o'tishga, moliyalashtirish ehtiyojlariga tezda javob berishga, qimmatli qog'ozlarni qulay bozor narxlarida emissiya qilishga hamda daromadlarni maksimal darajada oshirishga imkon berishi tufayli o'z kapitalini oshirishning eng arzon usuli sanaladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli farmoni.

2. Chu, Yongqiang and Zhao, Daxuan, Access to Public Capital Markets and Bank Lending. <https://ssrn.com/abstract=3123848> or <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.3123848>
3. Qimmatli qog'ozlar va birja komissiyasi (SEC) 415-qoida
4. M. W. Marr, and G. R. Thompson, 1985, The Rule 415 experiment: Equity markets, Journal of Finance 40, 1385-1401.
5. Blackwell, D. w., M. W. Marr, and M. F. Spivey, 1990, Shelf registration and the reduced due diligence argument: Implications of the underwriter certification and the implicit insurance hypotheses, Journal of Financial and Quantitative Analysis 25, 245-59.
6. Moehrle, S. R., Reynolds-Moehrle, J. A., & Stuerke, P. S. (2004). Shelf registered securities: is it time to re-evaluate the process? Research in Accounting Regulation, 17, 3–24. doi:10.1016/s1052-0457(04)17001-x
7. Gao, X., and J. R. Ritter. 2010. The marketing of seasoned equity offerings. Journal of Financial Economics 97:33–52.
8. Gustafson, M. 2017. Price pressure and overnight seasoned equity offerings. Forthcoming, Journal of Financial and Quantitative Analysis
9. Mualif tomonidan ishlab chiqildi.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 4 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).